O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

QAZIMBETOVA MUXABBAD MAXSETBAYEVNA

NOSTATSIONAR TENGLAMALAR UCHUN YUQORI ANIQLIKDAGI AYRIMALI SXEMALAR

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

UDK 519.6

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

QAZIMBETOVA MUXABBAD MAXSETBAYEVNA

NOSTATSIONAR TENGLAMALAR UCHUN YUQORI ANIQLIKDAGI AYRIMALI SXEMALAR

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM500 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Utebaev Dauletbay** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Hayotov Abdullo Rahmonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ashiraliev Chariyar fizika-matematika fanlari doktori, professor (Turkiya)
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "28" noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (134 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "14" noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "24" 09 dagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi ,
f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi,f.-m.f.d

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar tutash muhitlar mexanikasining nostatsionar jarayonlarning matematik modellari uchun aniqligi yuqori bo‘lgan sonli usullarni yaratishga bag‘ishlangan. Shu sababli, nostatsionar xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni chekli ayirmalar usuli yordamida yechish, ayniqsa, gaz dinamikasi, ichki to‘lqinlar nazariyasi masalalari, plazma masalalari, yarim o‘tkazgichlar fizikasi masalalari va boshqalar kabi sohalarda dolzarbdir. Bu sohada dastlabki differensial masalaning yechimining silliqligiga tabiiy talablarda ushbu tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarini qurish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda tadqiqotlarning eng muhim vazifalardan biri matematik fizikaning chiziqli va nochiziqli tenglamalarini, shu jumladan, analitik yechimini topish murakkab bo‘lgan Sobolev tipidagi noklassik tenglamalarni yechish uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish keng tadqiq etilmoqda. Shu munosabat bilan noklassik Sobolev tipidagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni sonli yechishning yuqori aniqlikdagi usullarini ishlab chiqish zarur. Shuning uchun giperbolik va Sobolev tipidagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechish uchun yuqori aniqlikdagi turg‘un sonli usullarini va ularning iqtisodiy jihatdan samarali algoritmlarini ishlab chiqish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan matematik fizika, mexanika va energetika sohalaridagi amaliy masalalarning sonli usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Binobarin, tutash muhitlar mexanikasi, plazma fizikasi, yarim o‘tkazgichlar fizikasi, okeanologiya va boshqalar kabi sohalardagi amaliy masalalarni yechish, sonli usullarni tadqiq qilishning nazariy jihotdan asosi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda aniqligi yuqori turg‘un ayirmali sxemalarni qurish, shuningdek, ularning tejamkor algoritmlarini ishlab chiqishda sezilarli natijalarga erishildi. “Funktsional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha jahon standartlari darajasida ilmiy natijalarga erishish O‘zR FA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institute faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qarorni amalga oshirish uchun matematik fizikaning nostatsionar tenglamalari uchun yuqori aniqlikdagi sonli usullarni qurish va tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Matematik fizika masalalarini yechishning sonli usullarini rivojlantirishga A.N. Tixonov, A.A. Samarskiy, G.I. Marchuk, N.N. Yanenko, S.K. Godunov, R. Richtmayer, O.A. Ladijenskaya, Y.I. Shokin, V.L. Makarov, R.D. Lazarov, A.V. Gulin, N.N. Kalitkin, M.N. Moskalkov, P.N. Vabishchevich, P.P. Matus, M.M. Aripov, R.D. Aloyev va boshqalar, matematik fizikaning nokorrekt yoki teskari masalalarini yechishning sonli usullarini ishlab chiqishga fundamental hissa qo‘shdi. Matematik fizikaning nokorrekt yoki teskari masalalarini yechishning sonli usullari alohida e‘tiborga loyiqdir. Bunday masalalar A.N. Tixonov, M.M. Lavrentyev, A.B. Bakushinskiy, A.V. Goncharskiy, S.I. Kabanixin, J.L. Lions, R. Lattes, V.K. Ivanov, V.G. Romanov va boshqalarning ilmiy ishlarida asarlarida analitik va sonli usullar bilan yechilgan. Sobolevning noklassik tenglamalari kabi yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. S.A. Gabov, A.G. Sveshnikov, M.O. Korpusov, Y.D. Pletner, A.I. Kojanov, G.A. Sviridyuk, S.G. Rossby, M.I. Lighthill, P.I. Chen va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu yerda chiziqli va nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishning analitik usullari keltirilgan. Bunday masalalarni yechishning sonli usullari M.M. Moskalkov, N.N. Kalitkin, A.B. Alshin, E.A. Alshina, A.A. Zamishlyaeva, G.I. Marchuk, V.V. SHaydurov, V.I. Agoshkov, M.M. Moskalkov, M.M. Aripov, D. Utebaev va boshqalar tarafidan ham o‘rganilgan. Ularning ishlari, asosan, chekli ayirmalar usuli va chekli elementlar usuliga asoslangan bo‘lib, yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarning aniqlik baholari olingan. Xuddi shunday tadqiqotlar A.A. Zamyshlyaevaning ishlarida ham o‘rganilgan, bu yerda takomillashtirilgan Galerkin usuli va Rits usuliga asoslangan sonli yechim uchun algoritm ishlab chiqilgan, shuningdek N.N Kalitkin, A.B. Alshin, E.A. Alshina asarlarida yuqori tartibli nostatsionar tenglamalar kvazitengo‘lchovli to‘rlarda ikkinchi tartibli aniqlikdagi chekli ayirmalar usuli bilan yechilgan. Shunga o‘xshash tadqiqotlar V. Vucheva, N. Kolkovska ishlarida ham olib borilgan, bu yerda vaqt va fazo o‘zgaruvchilari bo‘yicha birinchi va ikkinchi tartibli aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan va tadqiq qilingan.

Maʻlumki, matematik fizikaning nostatsionar tenglamalarini chekli ayirmalar usuli yoki chekli elementlar usuli bilan faqat fazo oʻzgaruvchilari boʻyicha approksimatsiyalash orqali koʻp oʻlchamli oddiy differensial tenglamalar sistemasi olinadi (toʻgʻrilar usuli). Ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar M.M. Moskalkov, P.P. Matus, P.N. Vabishchevich, M.M. Aripov, D. Utebaev ishlarida qurilgan va tadqiq qilingan. Toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi chekli elementlar usulining ayirmali sxemalari M.M. Moskalkov, M.M. Aripov, D. Utebaev, X.L. Atajanov, J.A. Nurullayev ishlarida qurilgan va tadqiq qilingan. K.A. Husayn, F. Ismoil ishlarida umumiy toʻrtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun Runge-Kutta usullariga asoslangan sonli usullar qurilgan va oʻrganilgan, bu yerda fazoviy oʻzgaruvchilar chekli ayirmalar usuli bilan approksimatsiyalangan. O.A. Tayvo, O.M. Ogunlaran ishlarida τ-usuli asosida, J. Talvar, R. Mohanti, K.K. Singx, D.I. Singx ishlarida esa chekli ayirmalar usuli asosida toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar yechimlari uchun ikkinchi tartibli aniqlik baholari olingan, bundan tashqari, yuqori darajadagi aniqlikni olish usullari koʻrsatilgan.

Xususiy hosilali koʻp oʻlchovli tenglamalar uchun boshlangʻich-chegaraviy masalalarni sonli yechishda additiv ayirmali sxemalarni qurishga alohida eʻtibor qaratilgan. Bu yerda koʻp oʻlchovli murakkab masaladan oddiyroq masalalar zanjiriga oʻtish amalga oshiriladigan qoʻshimcha ayirmali sxemalarini qurish va tadqiq qilishga katta eʻtibor beriladi. Bunday tadqiqotlar A.A. Samarskiy, P.N. Vabishevich va boshqalarning ishlarida olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʻlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining “Amaliy matematikaning chiziqli va nochiziqli nostatsionar tenglamalarini yechishning sonli usullari” ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi silliq va nosilliq yechimlar sinflarida ikkinchi va toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarini qurish, ularni giperbolik tipdagi tenglamalarga qoʻllash, ularning turgʻunlik shartlarini topish hamda yaqinlashish va aniqlik baholarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

silliq yechimlar sinflarida ikkinchi va toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemalarini sonli yechish uchun chekli ayirmalar usuli asosida yuqori aniqlikga ega oshkor va oshkormas ayirmali sxemalarini ishlab chiqish;

umumlashgan yechimlar sinfida ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini sonli yechish uchun chekli ayirmalar usuli asosida yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalarni ishlab chiqish;

umumlashgan yechimga ega koʻp oʻlchovli ikkinchi tartibli giperbolik tenglamalar uchun ayirmali sxemalarini qurish va tadqiq qilish;

xususiy hosilali korrekt va nokorrekt differensial tenglamalarga qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalar yechimining silliqligiga minimal talablarda sonli usullarning aprior va aniqlik baholarini olish;

Sobolev tipidagi noklassik tenglamalar uchun ba‘zi boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni sonli modellashtirish uchun yangi qurilgan yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalarini qo‘llash.

Tadqiqotning obyekti ikkinchi va to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi hamda giperbolik tipidagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar.

Tadqiqotning predmeti. ikkinchi va to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun, shuningdek giperbolik tipidagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun ba‘zi to‘g‘ri va teskari boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yuqori aniqlikdagi sonli usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida algebra, funksional analiz, differensial tenglamalar, hisoblash matematikasi, sonli modellashtirish, shuningdek algoritmlashtirish texnologiyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkinchi va to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun silliq yechimlar sinfida yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar qurilgan, approksimatsiya xatoligi, turg‘unlik shartlari va aniqlik baholari olingan;

ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun qurilgan yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar asosida additiv ayirmali sxemalar qurilgan;

ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini sonli yechich uchun umumlashgan yechimlar sinfida chekli ayirmalar usulining yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalari ishlab chiqilgan;

umumlashgan yechimlar sinfida ikkinchi tartibli ko‘p o‘lchovli giperbolik tenglama uchun ayirmali sxemalar qurilgan, approksimatsiya xatoligi, turg‘unlik shartlari va aniqlik baholari olingan;

Laplas tenglamasi uchun qo‘yilgan teskari masalaga yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan, yaqinlashish va aniqlik baholari olingan;

tashqi magnit maydondagi sovuq plazmadagi elektron to‘lqinlar tenglamasi va siqiladigan stratifikatsiyalangan aylanuvchi suyuqlik dinamikasi tenglamasi uchun boshlang‘ich chegaraviy masalalarga vaqt bo‘yicha yuqori aniqlikdagi yangi ayirmali sxemalar qurilgan va aniqlik baholari olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chekli ayirmalar usuli asosida silliq va nosilliq yechimlar sinflarida ikkinchi va to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasini sonli yechish uchun yuqori aniqlikdagi yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalari qurilgan;

ikkinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglama, tashqi magnit maydonida sovuq plazmadagi elektron to‘lqinlar tenglamasi va siqiladigan stratifikatsiyalangan aylanuvchi suyuqlik dinamikasi tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar sonli yechilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida olingan nazariy natijalar tegishli teoremalarni qatʻiy isbotlash, shuningdek, hisoblash eksperimenti asosida nazariy xulosalarni tasdiqlash bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiyada olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ikkinchi va toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechish uchun qurilgan yangi oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar amaliy masalalarning yechimini asoslash va ayirmali sxemalar nazariyasini rivojlantirish uchun foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iborat, chekli ayirmalar usuli asosida qurilgan oshkor va oshkormas ayirmali sxemalar, shuningdek, algoritmlar va dasturlar har xil xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlangʻich-chegaraviy masalalarning sonli yechish uchun foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikkinchi va toʻrtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalarni qurish boʻyicha olingan natijalar amaliyotga quyidagi yoʻnalishlarda joriy etilgan:

ikkinchi tartibli oddiy differentsial tenglamalar sistemasi uchun umumlashgan yechimlar sinfida qurilgan chekli ayirmalar usulining yuqori aniqlikdagi oshkor va oshkormas sxemalardan OT-F4-30-raqamli «Konvektiv koʻchirishda, oʻzgaruvchan zichlikka, manba yoki yutilishga ega ikki karra nochiziqli kross-sistema yechimlarining hususiyatlarini oʻrganish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasida diffuziya-konvektsiya masalalarini taqribiy yechish uchun optimal ayirmali sxema qurishda va uning approksimatsiya xatoligi, turgʻunligi va aniqligini baholashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy universitetining 2024 yil 28 iyunidagi 04/11-5328 sonli maʼlumotnomasi). Ilmiy natijalarning qoʻllanilishi diffuziya-konvektsiya masalalari uchun yangi optimal algoritmlar qurish va sonli yechish imkonini bergan.

teskari masalalarni taqribiy yechish, sonli modellashtirish va sonli eksperimentlar oʻtkazish usullaridan OT-F2-77-raqamli «Modellashtirish asosida ichki nuqsonlarni hisobga olgan holda yarim oʻtkazgichli asboblarning ishonchliligini bashorat qilishning takomillashtirish usuli» mavzusidagi fundamental loyihada turli defektlarga ega yarimoʻtkazgich strukturalardagi jarayonlarning elektrofizik va optik xususiyatlarini aniqlashda foydalanilgan (Qoraqalpoq davlat universitetining 2024 yil iyunidagi 01-22-04/337-sonli maʼlumotnomasi). Olingan ilmiy natijalarning qoʻllanilishi yarimoʻtkazgichlar fizikasi masalalarida defektlarning paydo boʻlishi sabablarini aniqlash va muayyan turgʻunlikni taʼminlaydigan yarimoʻtkazgich priborlarni yaratishdagi usullarni takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʻlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʻlim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shu jumladan 4 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxattan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 91 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tadqiq qilingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

«Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar» deb nomlangan **birinchi bobning** kirish qismida yordamchi materiallar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan, keyinchalik ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasiga to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan. Turg‘unlik shartlari, energetik normalarda aprior baholar olingan va ular asosida silliq yechimlar sinfida qurilgan sxemalarning aniqlik baholari isbotlangan. Parametrli ayirmali sxemalar asosida ikki o‘zgaruvchiga nisbatan to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi additiv ayirmali sxemalar taklif etilgan. Hisoblash algoritmi lokal bir o‘lchovli masalalar sifatida berilgan. To‘g‘ri burchakli fazoda giperbolik tipdagi ko‘p o‘lchamli boshlang‘ich-chegaraviy masalani yechishga misol keltirilgan. To‘rtinchi tartibli aniqlikdagi ayirmali sxema yechimining barcha o‘zgaruvchilar bo‘yicha dastlabki masala yechimiga yaqinlashishi haqidagi teorema isbotlangan. Ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun qurilgan ayirmali sxemalarni amalga oshirish algoritmlari ko‘rsatilgan. Test misollarida o‘tkazilgan hisoblash tajribalari qurilgan sonli usullarning samaradorligini isbotlagan.

Birinchi paragrafda ba’zi yordamchi materiallar keltirilgan.

Ikkinchi paragrafda ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun quyidagi Koshi masalasi ko‘rib chiqilgan:

$$D\ddot{u} + Au = f, \quad t_0 < t \le T, \tag{1}$$

$$u(t_0) = u_0, \quad \dot{u}(t_0) = u_1, \tag{2}$$

bu yerda A va D Hdan H ga harakatlanuvchi chiziqli, t ga bog‘liq bo‘lmagan doimiy operatorlar, H – tegishli skalyar ko‘paytma va normaga ega gilbert fazosi,

$A^* = A > 0$, $D^* = D > 0$, $\forall\, t \ge 0$, $u = u(t)$, $f = f(t) \in H$, $\ddot{u} = d^2u/dt^2$, $\dot{u} = du/dt$
.

(1), (2) masalasiga chekli ayirmalar usuli asosida quyidagi ayirmali sxema bilan approksimatsiyalandi:

$$\overline{D}y_{\bar{t}t} + Ay^{(\sigma_1,\sigma_2)} = \varphi, \quad t_n \in \omega_\tau, \tag{3}$$

$$y(0) = y_0, \quad y_t(0) = D^{-1}\bar{y}_1. \tag{4}$$

Bu yerda

$$\overline{D} = \left(D + (\tau^2/12)A\right), \quad \varphi = f + (\tau^2/12) f_{\bar{t}t}, \; \bar{y}_1 = \left(D - (\tau^2/6)A\right)y_1 + (\tau^2/6)\dot{f}\,.$$

Ayirmali sxemalari nazariyasi natijalari asosida quyidagi natija isbotlandi.

Teorema 1. Faraz qilaylik, (1), (2) masalaning yechimi $u(t) \in C^6[0,T]$, $f(t) \in C^4[0,T]$ va $\sigma_1 \ge \sigma_2$, $(\sigma_1 + \sigma_2) \ge [(2+3\varepsilon)/6] - 2\|D\|/(\tau^2\|A\|)$ shartlari o‘rinli bo‘lsin. U holda, $A^* = A > 0$, $\overline{D}^* = \overline{D} > 0$ operatorlari bilan berilgan (3), (4) sxema yechimi dastlabki masalaning yechimiga $O(\tau^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya‘ni

$$\|y(t) - u(t)\|_{\mathrm{D}} \le M\tau^4, \; M > 0 - const$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda $\mathrm{D} = D + (\tau^2/12)A + (\tau^2/2)(\sigma_1 + \sigma_2)A$.

Keyinchalik, (3), (4) ayirmali sxemalar asosida quyidagi

$$y_{\bar{t}t} + R^{-1}\sum_{\alpha=1}^{p} A^{(\alpha)}y = R^{-1}\varphi, \quad t_n \in \omega_\tau \tag{5}$$

additiv ayirmali sxemasi qurildi, bu yerda

$$R = \sum_{\beta=1}^{p}(\overline{D} + \sigma\tau^2 A^{(\beta)}), \; A = \sum_{\alpha=1}^{p} A^{(\alpha)}, \;\; A^{(\alpha)} = \left(A^{(\alpha)}\right)^* > 0, \; \alpha = \overline{1,p}\,.$$

Quyidagi teorema isbotlandi.

Teorema 2. Faraz qilaylik, (1), (2) masalalar yechimi $u(t) \in C^6[0,T]$, $f(t) \in C^4[0,T]$ va $\sigma \ge 1/4$ sharti o‘rinli bo‘lsin. U holda, $R = R^* > 0$, $A^* = A > 0$ operatorlari bilan berilgan (5), (4) sxema yechimi dastlabki masala yechishga $O(\tau^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya’ni

$$\|u(t) - y(t)\|_R \le M\tau^4, \; M > 0 - const$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi.

Uchinchi paragrafda ikkinchi paragrafda olingan natijalar asosida A statsionar operatorning

$$A = \sum_{\alpha=1}^{p} A^{(\alpha)}, \;\; A^{(\alpha)} = \left(A^{(\alpha)}\right)^* > 0, \; \alpha = \overline{1,p} \tag{6}$$

additiv tasvirlariga yo‘naltirilgan additiv ayirmali sxemalari qurilgan. Bunday holda, bir t_n vaqt qatlamidan t_{n+1} ikkinchisiga o‘tish (6) additiv yoyish bilan bog‘liq $A^{(\alpha)}$ doimiy additiv operatorlari bilan berilgan masalaning yechimiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan, berilgan masala soddaroq p masalalarga bo‘linadi. Faraz qilaylik, (3) sxemada $\sigma_1 = \sigma_2 = \sigma$ bo‘lsin (simmetrik sxema):

$$\overline{D} y_{\bar{t}t} + A y^{(\sigma)} = \varphi, \quad t_n \in \omega_\tau, \tag{7}$$

bu yerda $y^{(\sigma)} = \sigma \hat{y} + (1 - 2\sigma) y + \sigma \check{y}$. Boshlang‘ish shartlar (4) ko‘rinishga ega. Sxemaning turg‘unlik sharti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\sigma \geq (2 + 3\varepsilon)/12 - \|D\| / (\tau^2 \|A\|).$$

(7) sxema asosida additiv sxemani quramiz. Shuning uchun, (7) ayirmali sxemani uch qatlamli ayirmali sxemaning kanonik shakliga keltiramiz:

$$(\overline{D} + \sigma\tau^2 A) y_{\bar{t}t} + A y = \varphi, \quad t_n \in \omega_\tau.$$

Bu holda turg‘unlik sharti $\overline{D} + \sigma\tau^2 A \geq \left[(1 + \varepsilon)/4\right] \tau^2 A$ barcha $\sigma \geq 1/4$ uchun o‘rinli bo‘ladi.

(7) ga mos keladigan additiv sxema quyidagicha aniqlanadi:

$$y_{\bar{t}t} + R^{-1} \sum_{\alpha=1}^{p} A^{(\alpha)} y = R^{-1} \varphi, \quad t_n \in \omega_\tau, \tag{8}$$

bu yerda $R = \sum_{\beta=1}^{p} (\overline{D} + \sigma\tau^2 A^{(\beta)})$.

Shunday qilib, quyidagi natija o‘rinli bo‘ladi.

Teorema 3. Faraz qilaylik, (1), (2) masala yechimi $u(t) \in C^6[0,T]$, $f(t) \in C^4[0,T]$ va $\sigma \geq 1/4$ sharti o‘rinli bo‘lsin. U holda, $R = R^* > 0$, $A^* = A > 0$ operatorlari bilan berilgan (8), (4) sxema yechimi dastlabki masala yechimiga $O(\tau^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya’ni quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\|u(t) - y(t)\|_R \leq M\tau^4, \ M > 0 - const.$$

Ushbu usul asosida quyidagi p o‘lchovli ikkinchi tartibli giperbolik tenglama $\Omega = \{x : x = (x_1, x_2, ..., x_p), \ \ 0 < x_\alpha < l_\alpha, \ \ \alpha = \overline{1, p}\}$, $\overline{\Omega} = \Omega \cup \Gamma$ fazosida quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy shartlari bilan tadqiq etilgan:

$$\frac{\partial^2 w}{\partial t^2} + Lw = f(x,t), \ x \in \Omega, \ 0 < t \leq T, \tag{9}$$

$$w(x,t) = 0, \ x \in \Gamma = \partial\Omega, \ 0 < t \leq T, \tag{10}$$

$$w(x,0) = w_0(x), \ \frac{\partial w}{\partial t}(x,0) = u_1(x), \quad x \in \Omega, \tag{11}$$

bu yerda $Lw = -\sum_{\alpha=1}^{p} \frac{\partial}{\partial x_\alpha} \left(k(x) \frac{\partial w}{\partial x_\alpha} \right)$.

(14)-(16) masalaga mos keladigan, (7) ayirmali sxemasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\Im y_{\bar{t}t} + \sum_{\alpha=1}^{p} \Re^{(\alpha)} y = \tilde{\varphi}, \ t_n \in \omega_\tau, \tag{12}$$

bu yerda $\Im = \sum_{\beta=1}^{p} \left(\tilde{D} + \sigma\tau^2 \overline{A}^{(\beta)} \right), \ \Re = \overline{A}, \ \tilde{\varphi} = f^n + \frac{\tau^2}{12} f_{tt}^n + \frac{h_1^2}{12} f_{x_1 x_1}^n + \frac{h_2^2}{12} f_{x_2 x_2}^n,$

$f_{tt}^n = \frac{\partial^2 f}{\partial t^2}, \ f_{x_\alpha x_\alpha}^n = \frac{\partial^2 f}{\partial x_\alpha^2}, \ \alpha = 1{,}2. \ \tilde{D} = E + \frac{\tau^2}{12} A + \frac{h_1^2 + h_2^2}{12} A_1 A_2.$

(12) ga boshlang‘ich shartlar quyidagi ko‘rinishda beriladi:

$$y^0 = u_0, \quad \Im y_t(0) = \Im u_1 + \frac{\tau}{2}(\tilde{\varphi}^0 - \Re u_0) + \frac{\tau^2}{6}\left(\frac{\partial f^0}{\partial t^2} - \Re u_1 \right). \tag{13}$$

Quyidagi tasdiq isbotlangan.

Teorema 4. Faraz qilaylik, (9)–(11) masala yechimi $u(x,t) \in C_{t\,x}^{6,6}\{\overline{Q}_T\}$, $f(x,t) \in C_{t\,x}^{4,4}\{\overline{Q}_T\}$ va $\sigma \geq 1/4$ sharti o‘rinli bo‘lsin. U holda, $\Im = \Im^* > 0, \ \Re = \Re^* > 0$ operatorlari bilan berilgan (12), (13) sxema dastlabki masala yechimiga $O(\tau^4 + |h|^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya’ni quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\|u(x,t) - y(x,t)\|_\Im \leq M(|h|^4 + \tau^4), \ y,u \in H_h, \ M > 0 - const.$$

Keyinchalik, ushbu tenglamalarning barcha xususiyatlariga ega bo‘lgan ikkinchi tartibli giperbolik tipdagi tenglamalarning eng oddiy vakili bo‘lgan ipning (struna) tebranish tenglamasi uchun test misolida sonli natijalari keltirilgan.

“Umumlashgan yechimga ega differensial tenglamalar uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar” deb nomlangan dissertatsiyasining **ikkinchi bobda** umumlashgan yechimlar sinfidagi ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasiga to‘rtinchi tartibli aniqlikka ega ayirmali sxemalarni qurishga va tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Turg‘unlik shartlari, energetik normalarida aprior baholari olingan va ular asosida umumlashgan yechimlar sinfida qurilgan ayirmali sxemalarning aniqlik baholari olingan. Ushbu natijalar asosida umumlashgan yechimlar sinfida ikkinchi tartibli giperbolik tenglama uchun ayirmali sxemalar qurilgan va tadqiq etilgan. O‘tkazilgan hisoblash tajribalari qurilgan sonli usullarning aniqligi bo‘yicha nazariy xulosalarni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Laplas teskari masalasi uchun chekli ayirmalar usuli va chekli elementlar usulining ayirmali sxemalari qurilgan va tadqiq etilgan. Natijalar silliq va nosilliq yechimlarda olingan.

Birinchi paragrafda (1), (2) Koshi masalasi o‘rganilgan. Ushbu masala uchun aniq ayirmali sxemalar operatorlaridan foydalangan holda

$$\overline{D} y_{\bar{t}t} + A y^{(\sigma_1, \sigma_2)} = \varphi, \quad t_n \in \omega_\tau, \tag{14}$$

ayirmali sxemasi qurilgan, bu yerda $y = y^n = y(t_n)$, $\overline{D} = D + \frac{\tau^2}{12} A$, $y_{\bar{t}t} = (y^{n+1} - 2y^n + y^{n-1}) / \tau^2$, $\hat{y} = y(t_{n+1})$, $\check{y} = y(t_{n-1})$, $\varphi = T^t f$, $T^t u = \frac{1}{\tau^2} \int\limits_{t-\tau}^{t+\tau} (\tau - |t-\theta|) u(\theta) d\theta$, $y^n \in H$, $y^{(\sigma_1, \sigma_2)} = \sigma_1 \hat{y} + (1 - \sigma_1 - \sigma_2) y + \sigma_2 \check{y}$, $\varphi \in H$, $t_n \in \omega_\tau$.

Boshlang‘ich shartlarini (4) ko‘rinishida tanlaymiz.

Quyidagi asosiy teorema isbotlangan.

Teorema 5. Faraz qilaylik, (1), (2) masalaning yechimi $u(t) \in W_2^4[0,T]$, $f(t) \in C^2[0,T]$ va

$$\sigma_1 \geq \sigma_2, \ (\sigma_1 + \sigma_2) \geq \frac{2+3\varepsilon}{6} - \frac{2\|D\|}{\tau^2 \|A\|} \tag{15}$$

shartlar o‘rinli bo‘lsin. U holda $A^* = A > 0$, $\overline{D}^* = \overline{D} > 0$ operatorlari bilan berilgan (14), (4) sxema yechimi dastlabki masala yechimiga $O(\tau^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya‘ni quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\|u(t) - y(t)\|_{\mathrm{D}} \leq M\tau^4, \ M > 0 - const, \tag{16}$$

bu yerda $\mathrm{D} = D + \frac{\tau^2}{12} A + \frac{\tau^2}{2} (\sigma_1 + \sigma_2) A$.

(16) bahosi Bramble-Hilbert lemmasi va (14) ayirmali sxemaning approksimatsiya xatoligi $\psi = O(\tau^4)$ ni hisobga olgan holda olindi.

Ikkinchi paragrafda umumlashgan yechimga ega giperbolik tipdagi ikkinchi tartibli tenglama uchun birinchi boshlang‘ich-chegaraviy masalasini ko‘rib chiqilgan:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = Lu + f(x,t), \ (x,t) \in Q_T = \{x \in \Omega, \ t \in (0,T]\}, \tag{17}$$

$$u(x,0) = u_0(x), \ \frac{\partial u}{\partial t}(x,0) = u_1(x), \ x \in \overline{\Omega}, \tag{18}$$

$$u = \mu(x,t), \ (x,t) \in S_\Gamma = \{x \in \Gamma = \partial\Omega, \ t \in (0,T]\}, \tag{19}$$

bu yerda

$$L = \sum_{\alpha=1}^{n} L_\alpha, \quad L_\alpha u = \frac{\partial}{\partial x_\alpha}\left(k_\alpha(x_\alpha) \frac{\partial u}{\partial x_\alpha} \right), \quad 0 < c_1 \leq k_\alpha(x_\alpha) \leq c_2$$

$$\overline{\Omega} = \{x = (x_1, x_2, ..., x_n) : 0 \leq x_\alpha \leq l_\alpha, \ \alpha = 1,2,...,n\}, \quad \Omega = \overline{\Omega} \cap (0, l_\alpha),$$

$\Gamma - \Omega$ fazo chegarasi, $f(x,t)$, $\mu(x,t)$, $k_\alpha(x_\alpha)$, $u_0(x)$, $u_1(x)$ funktsiyalari, va Ω fazosi chegarasi $\partial\Omega$ shundayki, (17)-(19) masala yechimi $W_2^m(Q_T)$ sinfga tegishli, bu yerda $m = 1,2$.

(1)-(3) masala uchun (14), (4) ikki parametrli ayirmali sxemalar qurilgan.

Quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 6. Faraz qilaylik, (17)-(19) dastlabki masala yechimi $u(x,t)\in W_2^4\left\{[0,T];W_2^m(\Omega)\cap \overset{\circ}{W}{}_2^1(\Omega)\right\}$, $f(x,t)\in C^2\left\{[0,T];W_2^m(\Omega)\right\}$ bo‘lsin va (15) shart bajarilsin. U holda, (14), (4) ayirmali sxema yechimi dastlabki masala yechimiga $O(\tau^4+|h|^{m-k-1})$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya’ni

$$\tilde{E}_h^{(k)}(t;z)\le M(|h|^{m-k-1}+\tau^4)\|u\|_{m,Q_T},\quad 0\le m-k-1\le 2,\quad k=-1,0,1,$$

aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi, bu yerda $M>0-const$.

Nazariy xulosalarni tasdiqlovchi test natijalari keltirilgan.

Uchinchi paragraf Laplas teskari masalasiga ayirmali sxemalar qurish va tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Xususan, Laplasning ikki o‘lchovli

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}=f(x,t),\ (x,t)\in Q_T, \tag{20}$$

tenglamasini,

$$u(x,0)=u_0(x),\ \frac{\partial u}{\partial t}(x,0)=0,\ x\in\overline{\Omega}, \tag{21}$$

boshlang‘ish shartlari va

$$u(0,t)=0,\ u(l,t)=0,\ t\in(0,T]. \tag{22}$$

chegaraviy shartlari bilan ko‘rib chiqamiz, bu yerda

$$Q_T=\{(x,t),\ x\in\Omega,\ t\in(0,T]\},\ \Omega=\{x:0<x<l\},\ \overline{\Omega}=\Omega\cup\Gamma=\{0,l\}.$$

(20)-(22) masalani ikkinchi tartibli differensial-operatorli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi sifatida ko‘rib chiqamiz. $\Omega=(0,l)$ da berilgan funksiya uchun, (u,ϑ) skalyar ko‘paytma va $\|u\|=\sqrt{(u,u)}$ normaga ega $H=L_2(\Omega)$ gilbert fazosin kiritamiz. Ushbu operatorni aniqlaymiz:

$$Au=-\frac{\partial^2 u}{\partial t^2},\ 0<x<l. \tag{23}$$

Bu yerda $A:H\to H$ operatori uchun $A=A^*\ge mE,\ m>0$ tengsizligi o‘rinli bo‘ladi. U holda (20) tenglamani (21), (22) chegaraviy shartlari bilan $u(t)\in H$ yechimini topish uchun quyidagi differensial-operatorli tenglama sifatida yoziladi:

$$\frac{d^2u}{dt^2}-Au=f(t),\quad 0<t\le T, \tag{24}$$

Boshlang‘ish shartlar esa quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$u(0)=u_0,\qquad \frac{du}{dt}(0)=0. \tag{25}$$

(24), (25) masalaning nokorrektligi kirish ma’lumotlariga (boshlang‘ich shartlar) doimiy bog‘liqlikning yo‘qligi bilan bog‘liq. Bu yerda $A^*=A\ge mE,\ \ m>0$.

(24), (25) masalani diskretlashtirish uchun kvaziobrashsheniya usuli variantidan foydalaniladi, bunda taxminiy yechim quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\frac{d^2u_\alpha}{dt^2} - Au_\alpha + \alpha A\frac{d^2u_\alpha}{dt^2} = f(t),\ 0 < t \le T \tag{26}$$

Boshlang‘ich shartlari:

$$u_\alpha(0) = u_0^\delta,\ \left\|u_0^\delta - u_0\right\| \le \delta, \tag{27}$$

$$\frac{du_\alpha}{dt}(0) = 0. \tag{28}$$

Bu yerda α - regulyarizasiya parametri, δ - ba‘zi musbat parametr.

Fazo bo‘yicha approksimatsiyalashdan keyin (26)-(28) masala quyidagi masalaga mos keladi (ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi)

$$D\frac{d^2u_{\alpha,h}}{dt^2} - \overline{A}u_{\alpha,h} = f_h(t), \quad 0 < t \le T, \tag{29}$$

$$u_{\alpha,h}(0) = u_0^\delta,\ \left\|u_0^\delta - u_0\right\| \le \delta, \tag{30}$$

$$\frac{du_{\alpha,h}}{dt}(0) = 0, \tag{31}$$

bu yerda $D = E - \alpha\overline{A},\ \overline{A} = -\Lambda,\ u_{\alpha,h} \in H_h$.

(29)–(31) masalani aniq uchqatlamli ayirmali sxema bilan approksimatsiyalaymiz:

$$\tilde{D}y_{\bar{t}t} + \overline{A}y^{(\sigma_1,\sigma_2)} = \varphi,\ y_0 = u_0,\ y_1 = \overline{y}_1, \tag{32}$$

bu yerda $\tilde{D} = E - \alpha\overline{A} + \dfrac{\tau^2}{12}\overline{A},\quad \varphi = f + \dfrac{\tau^2}{12}f_{\bar{t}t},\ \overline{y}_1 = \left[E - \left(\alpha + \dfrac{\tau^2}{6}\right)\right]\overline{A}y_1 + \dfrac{\tau^2}{6}\dfrac{df}{dt}$.

(32), (4) ayirmali sxema (29)-(31) masalani $O(\tau^4)$ aniqlik bilan approksimatsiyalaydi, agarda $u(t) \in C^6[0,T],\ \ f(t) \in C^4[0,T]$.

Quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 7. Faraz qilaylik, $A^* = A > 0,\ D^* = D > 0$ operatorlar va

$$\sigma_1 \ge \sigma_2,\ \alpha > \frac{\tau^2}{6} + \frac{\tau^2}{2}(\sigma_1 + \sigma_2)$$

shartlari bajarilsin. U holda (32) sxemaning yechimi berilgan (29)-(31) masalaning silliq yechimiga $O(h^2 + \tau^4)$ aniqlik bilan yaqinlashadi, ya’ni quyidagi aniqlik bahosi o‘rinli bo‘ladi:

$$\left\|y(t) - u(t)\right\|_{\tilde{D}} \le O(h^2 + \tau^4).$$

Keyinchalik, (24), (25) masalani diskretizatsiyalash uchun kvaziobrashsheniya usulining quyidagi variantidan foydalanildi:

$$\frac{d^2u_\sigma}{dt^2} - Au_\sigma + \sigma A\frac{du_\sigma}{dt} = f(t),\ 0 < t \le T, \tag{33}$$

(30), (31) boshlang‘ich shartlari bilan.

Ushbu (33) tenglamani approksimatsiyalash uchun Moskalkov-Utebaevning chekli elementlar usulining to‘rtinchi tartibli approksimatsiyaga ega ayirmali sxemalaridan foydalanildi. Turg‘unlik shartlari, aprior va aniqlik baholari olindi. Ushbu masalaning sonli yechimining test natijalari keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“To‘rtinchi tartibli oddiy differentsial tenglamalar sistemasi uchun yuqori aniqlikdagi ayirmali sxemalar va ularning tadbiqlari”** deb nomlangan **uchinchi bobda** to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasiga to‘rtinchi tartibli aniqlikdagi ayirmali sxemalar qurilgan. Turg‘unlik shartlari, energetik normalarda aprior baholar olingan va ular asosida silliq yechimlar sinfida qurilgan sxemalarning aniqlik baholari isbotlangan. Bundan tashqari, oltinchi tartibli vaqt hosilasiga nisbatan yechilmagan Sobolev tipidagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar ko‘rib chiqilgan. Tashqi magnit maydonidagi sovuq plazmadagi elektron to‘lqin tenglamasi va siqiladigan stratifikatsiyalangan aylanuvchi suyuqlik dinamikasi tenglamasi uchun chegaraviy masalalar ko‘rib chiqilgan. Chekli ayirmalar usuli asosida vaqt va fazo bo‘yicha yuqori aniqlikdagi parametrik ayirmali sxemalar qurilgan va tadqiq qilingan. Tashqi magnit maydonidagi sovuq plazmadagi elektron to‘lqinlar tenglamasi va siqiladigan stratifikatsiyalangan aylanuvchi suyuqlik dinamikasi tenglamasi uchun, uchbu masalalarning yechimlarining etarlicha silliqligida yuqori aniqlikdagi sonli usullari qurilgan va tegishli aprior baholari olingan, ular asosida qurilgan algoritmlarning yaqinlashish tezligi va aniqligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Test misollarida o‘tkazilgan hisoblash tajribalari qurilgan sonli algoritmlarning samaradorligini ko‘rsatib bergan.

Birinchi paragrafda to‘rtinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun quyidagi

$$D\ddot{\ddot{u}} + B\ddot{u} + Au = f, \quad t_0 < t \le \mathrm{T}, \tag{34}$$

$$u(0) = u_{0,0},\ \dot{u}(0) = u_{0,1},\ \ddot{u}(0) = u_{0,2},\ \dddot{u}(0) = u_{0,3} \tag{35}$$

Koshi masalasi ko‘rib chiqildi, bu yerda D, B va A H dan H ga harakatlanuvchi, t ga bog‘liq bo‘lmagan chiziqli doimiy operatorlar, $D^* = D > 0$, $B^* = B \ge 0$, $A^* = A > 0$, $\ddot{\ddot{u}} = d^4u/dt^4$, $\dddot{u} = d^3u/dt^3$, $\ddot{u} = d^2u/dt^2, \dot{u} = du/dt$, $\forall\, t \ge 0,\ u = u(t)$, $f = f(t) \in H$, H- gilbert fazosi, (u, ϑ) ushbu fazoning skalyar ko‘paytmasi va $\|u\| = \sqrt{(u,u)}$ normasi. Keyingi tadqiqotlar uchun (34), (35) masalaning yechimi kerakli silliqlikka ega deb taxmin qilamiz.

(34), (35) masala uchun quyidagi ikkinchi tartibli aniqlikga ega ayirmali sxema qurilgan:

$$Dy_{\bar{t}\,t\,\bar{t}\,t} + By_{\bar{t}\,t} + Ay = \varphi,\ t_n \in \omega_\tau,\ n = 2,3,\ldots, \tag{36}$$

$$y^0 = u_{0,0},\ y^1 = \bar{u}_{0,1},\ y^2 = \bar{u}_{0,2},\ y^3 = \bar{u}_{0,3}, \tag{37}$$

